



**AJDODLARIMIZ VA MAMLAKATIMIZ
OLIMLARI ILMIY MEROSIDA SHAXS
MA'NAVYI QIYOFASINI SHAKLLANTIRISH
MASALALARI**

Jabborov Jamshid Azimovich,

*Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*



**ISSUES OF FORMING THE SPIRITUAL IMAGE
OF THE PERSON IN THE SCIENTIFIC
HERITAGE OF OUR ANCESTORS AND
SCHOLARS OF OUR COUNTRY**

Jabbarov Jamshid Azimovich,

*Associate Professor of the International Innovation
University, Doctor of Philosophy (PhD)*



E-mail: jamshidshoh@gmail.com

Orcid: 0009-0008-6409-2967

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15283426>

**ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНОГО
ОБРАЗА ЛИЧНОСТИ В НАУЧНОМ
НАСЛЕДИИ НАШИХ ПРЕДКОВ И УЧЕНЫХ
НАШЕЙ СТРАНЫ**

Джаббаров Джамшид Азимович,

*доцент Международного инновационного
университета, доктор философии (PhD) по
философским наукам*

Annotatsiya: Maqolada ajdodlarimiz va mamlakatimiz olimlari tomonidan yaratilgan boy ma'naviy merosda shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirish masalalari yoritilishi tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatimiz olimlari tomonidan shaxs ma'naviy qiyofasini asosi bo'lgan ehtiyojlar tizimi, ularni tasniflanishi, ma'naviy ehtiyojlar rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy va madaniy omillari yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilganligi chuqur ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: shaxs ma'naviy qiyofasi, ehtiyoj, ma'naviy ehtiyoj, dunyoqarash, jamiyat, shaxs, moddiy ehtiyoj, texnologiya, ma'naviy hayot, ishlab chiqarish.

Abstract: The article analyzes the issues of forming the spiritual image of a person in the rich spiritual heritage created by our ancestors. Also, a deep scientific analysis is made of the fact that our country's scientists have conducted a number of successful scientific research on the system of needs that form the basis of the spiritual image of a person, their classification, and the socio-philosophical and cultural factors of the development of spiritual needs.

Keywords: spiritual image of a person, need, spiritual need, worldview, society, person, material need, technology, spiritual life, production.

Аннотация: В статье анализируются вопросы формирования духовного облика человека в богатом духовном наследии, созданном нашими предками. Также учеными нашей страны был проведен глубокий научный анализ системы потребностей, составляющих основу духовного облика человека, их классификации, социально-философских и культурных факторов развития духовных потребностей.



Ключевые слова: духовный облик личности, потребность, духовная потребность, мировоззрение, общество, личность, материальная потребность, техника, духовная жизнь, производство.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyotiga nazar tashlasak, inson ehtiyojlari, jumladan, ma'naviy ehtiyojlar doim o'sib, yuksalishib boradi. Ular o'z rivojlanish qonunlariga ega. Ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi ulardan yuksakroq bo'lgan yangi ma'naviy ehtiyojlarni tug'ilishiga olib keladi. Bu holat ma'naviy ehtiyojlarning muttasil ravishda yuksalib borishi qonun ekanini tasdiqlaydi. Ma'naviy ehtiyojlarning paydo bo'lishi, anglanishi, qondirilishi, ehtiyojlarning tarkibi o'zgarishi yoki yangi-yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishi, ularning ham qondirilish jarayoni doimo takrorlanuvchi eng muhim, mohiyatli, birinchi darajali zaruriy bog'lanishlardir. Ma'naviy ehtiyojlarni uzluksiz ravishda o'sishi va yangilarining vujudga kelishi har bir jamiyatga xosdir.

Jamiyatni yanada yuksaltirishda ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning ijtimoiy mohiyati, tafakkur va jamiyat, ma'naviyat va ijtimoiy muhit munosabatlari, inson ehtiyoji, hayotiy talablari va nafs xususiyatlari haqidagi fikrlar Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri namoyandalari: Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy ijodiyotida ifodalangan bo'lib, ularning qarashlarida aks etgan inson ma'naviyati, gumanistik g'oyalari bugungi kunda ham o'zining dolzarb tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ehtiyojlar tizimini tasniflash yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilib, qisman tahlil qilingan. Biroq, ma'naviy ehtiyojlarning yuksalishi, shakllanishi, anglab olinishi, shaxsiy, guruhiy, milliy manfaatlar bilan bog'lanishi, ehtiyojlarning mazmuniga, inson va jamiyatga ta'siriga ko'ra ijobiy va salbiy xususiyatlar kasb etishi, ehtiyojlar rivojini belgilovchi omillar, ehtiyojlar rivojining ma'naviyat va butun jamiyat yuksalishi bilan bog'liqligi kabi dolzarb masalalar chuqur tahlillarga tayanuvchi ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning obektivlik, tarixiylik va umumiylik usulidan foydalanildi. Shuningdek, ma'naviy ehtiyojlar – ajdodlarimiz hamda yurtimiz olimlarining ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Erkaev A. ning "Ma'naviyat – millat nishoni" kitobi, "Ma'naviyatning uch qonuni" nomli maqolasi, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asari va boshqa adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan mualliflarning nazariy-



falsafiy qarashlari ilgari surilgan ilmiy maqolalar metodologik manba bo'lib belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qadimgi dunyo donishmandlari, xususan, Zardusht, Konfutsiy, Budda, antik zamon allomalari zamonidan boshlab hozirgi kungacha inson muammosi to'g'risida fikr yuritilganida uning mohiyatini aql, til, axloq, odob va ehtiyojlarga bog'lab tavsiflash an'anasi davom etib kelmoqda. Markaziy Osiyoning eng qadimgi yozma manbai bo'lgan "Avesto"dan tortib shu kungacha yuzaga kelgan ijtimoiy-falsafiy fikrlarda ma'naviy va axloqiy ehtiyojlar mazmunini inson bilan bog'langan holda tavsiflab keladi. Xususan, komillikka intilishning mohiyati va zaruriyati haqidagi masala qadimgi Sharqda yuzaga kelgan dastlabki falsafiy-nazariy masalalardan biridir. U "Avesto"da tahlil qilingan. Bu asarda ifodalangan "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" birligi insonda ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishda nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lib, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin. Markaziy osiyolik mutafakkirlarning falsafiy qarashlarida bunday fikrlar ustuvor o'rin tutgan.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, axloqiy kamolotni ma'naviy ehtiyojga aylantirgan inson o'z ruhi, g'ururi va vijdonini qadrlashi, o'zi go'zal va yaxshi xislatli, qo'rqmas, jasur bo'lishi kerak, o'z tabiatiga ko'ra har – bir odam shunday yaratilganki, u yashashi va kamolga yetishishi uchun juda ko'plab narsalarga muhtoj bo'ladi, ularga bir o'zi erisha olmaydi va ularga erishishi uchun u kishilar jamoasiga muhtoj bo'ladi, ularning har biri uning biror-bir hojatini chiqaradi. Har-bir odam boshqa odamga nisbatan xuddi shunday ahvolda bo'ladi. Alloma insonning yashashi va kamolga yetishi uchun zarur bo'lgan narsalar yig'indisini ehtiyoj sifatida baholaydi. Farobiyning ehtiyojga, jamiyatning shakllanishi va rivojlanishida uning ahamiyatiga bergan ta'rifi bizning davrimizda ham e'tiborini yo'qotmagan [1; 186-188]. Farobiy jamiyatning kelib chiqishi ustida mulohaza yuritar ekan, zo'ravonlik va majburlash ta'limotini inkor etib, u inson jamoasining kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyoj yotganligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. "Tabiiy ehtiyoj kishilarni jamoaga uyushishiga, o'zaro yordamga olib keladi. Ana shu o'zaro yordam tufayli ehtiyoj qondiriladi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro yordam inson jamoasini keltirib chiqaradi" [9; 45].

Abu Ali ibn Sino insonning ijtimoiy mavjudligi uning faqat ma'naviy tabiatidan emas, balki tabiiy ehtiyojlaridan kelib chiqishini, yaxshilikka intilish, uni hayotga tatbiq etish inson uchun yuksak ma'naviy fazilat ekanligini ta'kidlaydi. Allomaning fikricha inson ehtiyoj va intilishlari o'rtasida farq bo'lishi tabiiy va ayrim



aholi guruhlari hamda shaxslar o'rtasida kelishmovchilik, qarama-qarashliklarni sodir bo'lishi kishilarning mavjud ekanligidan dalolatdir [6; 143-144].

Abu Rayhon Beruniyning fikricha esa, axloqiy qadriyatlar insonning mehnatida namoyon bo'ladi [3; 40]. Mutafakkir insonni inson sifatida ulug'laydigan narsa bu mehnat ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. "Inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga o'xshash kishilar bilan birga yashash zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi shartnoma tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikda turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilishi zarur" [2], deb ta'kidlaydi.

Ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tushuntirishda Beruniy kishilar ehtiyojini ham muhim omil sifatida ko'rsatib, asoslab bergan. Xususan, u odamlarning bir-birini himoya qilish ehtiyoji, muomala ehtiyoji, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini alohida tahlil qilib bergan [9; 47].

Bilimga nisbatan odob yuqoriroq turgan, odob bilimning ustqurmasi ekanligini ta'riflagan tasavvuf falsafasi komil insonda axloq, odob, yuksak xulq-atvor botiniy bo'lishini e'tirof etgan. Bunday komillik Alisher Navoiyning "Odamiy ersang demagil odami, oniki yo'q xalq g'amidin g'ami" [4] tarzida ifodalangan hikmatida o'z aksini topgan.

Sobiq ittifoq davrida ehtiyoj, xususan ma'naviy ehtiyojlar haqida yuzaga kelgan konsepsiyalarda tarixiy materializm, kommunistik mafkura g'oyaviy asos bo'lganligi uchun bu sohada xolisona ilmiy fikr yuritish imkonlari cheklangan edi. Yangilangan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan falsafa va falsafiy fanlar tizimiga oid tadqiqotlarda ma'naviy ehtiyojlar va ularning shakllanish mexanizmlari asosan ijtimoiy-amaliy faoliyatga bog'lab o'rganiladi. Ehtiyojlar haqidagi falsafiy, sotsiologik, iqtisodiy, psixologik, estetik izlanishlarda uning umumiy tomonlari tilga olingan bo'lsa-da, lekin shaxsning ma'naviy ehtiyoji, uning mohiyat-mazmuni, mezon va me'yorlari, tushuncha va prinsiplari maxsus o'rganilmagan.

O'rta asrlarda ma'naviyat masalalari, xususan, ma'naviy ehtiyojlar diniy munosabatlar ta'siri ostida bo'lganligini ko'plab tarixiy manbalarda uchratamiz. Bu davrda yashagan insonlarning dunyoqarashida, qadriyatlarida din ustunlik qildi, ularning ma'naviy hayotini belgilab berdi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning natijasida hamda boshqa xalqlarning ma'rifatparvarlari ta'siri oqibatida ijtimoiy-falsafiy oqimga aylangan jadidchilik harakatining g'oyalari: ozodlik, tenglik va hurfiylik – insonlarning asosiy ma'naviy ehtiyojiga aylandi. Jadidlar Turkiston hududida uzoq davr mobaynida yuz bergan ijtimoiy-madaniy inqirozga barham berishga harakat qilib, san'at, din, matbuot, maorif, adabiyot sohalarida islohot o'tkazish g'oyalarini



ilgari surganlar. Ular axloq-odob, e'tiqod, adliya, sog'liqni saqlash muammolarini qayta ko'rib chiqishni, ijtimoiy-ma'naviy hayotning barcha sohalarini shakllantirishni o'z oldilariga asosiy maqsad qilib harakat qilishdi, ko'plab yutuqlarga erishishdi. Lekin, o'sha davrdagi siyosiy tizim bu harakatlarning zavolga yuz tutishiga sabab bo'ldi.

Mustaqillikdan keyin yurtimizning faylasuflari ham ehtiyoj muammosiga e'tiborlarini qaratishdi. Ehtiyojlar haqida A.P.Erkaev quyidagi fikrlarni bildirgan: "Hayvonot olamida biologik ehtiyojlardan o'zga bir ehtiyoj deyarli yo'q. Ayrim qushlar va hayvonlarning "ishqiy" o'yinlari, juft bo'lib yashashini biologik-ehtiyoj doirasidan tashqari deb qarashga asos yo'q. Hayvonot olamida ehtiyojlar yuksalmaydi, faqat o'zgaradi, natijada biologik vujud tabiatga moslashadi, xolos.

Insonda esa ehtiyojlar muttasil yuksaladi: moddiylari ham, ma'naviylari ham. Insonda bir ehtiyojning qondirilishi undan yuksakroq bo'lgan yangi ehtiyojni tug'diradi" [10; 39]. Olimning fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ma'naviy ehtiyoj faqat insongagina xos bo'lib, uni ongli mavjudot sifatida shakllantirishda, dunyoqarashini rivojlantirishda, borliqda ijtimoiy mo'ljalini belgilovchi vosita ekanligini ko'rishimiz mumkin. Hayvonot olamidagi "ehtiyolar" esa faqat tabiiy-biologik ko'rinishga ega bo'lib, organizmining ichki mayl, intilishi sifatida namoyon bo'ladi. Agarda insonlarda ham hayvonlardagidek faqatgina tabiiy-biologik ehtiyojlari mavjud bo'lib, moddiy-iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ehtiyojlari mavjud bo'lmaganda, insonning ongli faoliyati ham bo'lmasdi.

A. Erkaev ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlarni mazmuni, vazifalari, ahamiyati, muayyan ijtimoiy ong shakliga mansubligiga qarab ikki guruhga bo'ladi:

1. Umumma'naviy, ya'ni ma'naviyat yaxlit tizim, bus-butunlik sifatida taqozo etadigan va vujudga keltiradigan ehtiyojlar;
2. Ma'naviyatning nisbatan mustaqil tarkibiy qismlari sifatida ijtimoiy ong shakllari taqozo etadigan va vujudga keltiradigan ehtiyojlar.

Birinchi guruhga: insonning o'z tabiatini (mohiyatini) takomillashtirish, ijtimoiy yaratuvchilik imkoniyatlarini (salohiyatini) oshirish, shaxs sifatida qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, erkinlik darajasini orttirib borish ehtiyojlari kiritilgan. Ularning har biri ko'plab talab, me'yor, mezon va ko'rsatkichlarni qamrab oladi.

Ikkinchi guruhga ijtimoiy ongning alohida shakllariga oid ehtiyojlar tizimi kiradi: e'tiqodiy, ya'ni ilmiy-falsafiy va diniy ehtiyojlar, axloqiy ehtiyojlar, estetik ehtiyojlar, huquqiy ehtiyojlar, siyosiy ehtiyojlar, boshqa ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar (oilani mustahkamlash, urf-odatlar, marosim, an'analarni takomillashtirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sportni rivojlantirish, axborot olish, hordiq chiqarish, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish) va hokazo [11; 20-26].



Taniqli olimlardan Erkin Umarov va Mahmud Abdullaevlar hammuallifligi ostida chop etilgan “Ma’naviyat asoslari” o‘quv qo‘llanmasida: “Ehtiyoj – bu zarurat. Biz ularni o‘ylab topmaymiz, anglab yetishimiz yoki anglab yeta olmasligimiz mumkin. Har qanday ehtiyoj o‘z asosiga ko‘ra, insonning muhit bilan o‘zaro aloqadorligi tufayli yuzaga keladi. Har bir kishi o‘z tirikchiligini ta’minlash uchun oziq-ovqat yeyishi, ichishi, harakat qilishi, o‘zi bilan tabiat o‘rtasidagi modda almashinuvini amalga oshirishi zarur, biroq ochlik, tashnalik tuyg‘usi ovqat hazm qilish jarayonisiz ma’no kasb etmaydi. Harakat qilishga bo‘lgan ehtiyoj muayyan organlar va muskullar harakatisiz, shuningdek, kishilar bilan aloqaga kirishish istagisiz, tilsiz, tafakkursiz, hissiyotsiz ro‘y bermaydi” [12; 27], - deya ehtiyoj tushunchasiga ta’rif berganlar va ularning yuzaga chiqishining ichki mexanizmini qayd etganlar. Olimlar inson borliqning bir bo‘lagi sifatida ham tabiat bilan, ham jamiyat bilan o‘zaro munosabatga kirishishi orqali ehtiyojlari yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Insonning moddiy-iqtisodiy hamda ma’naviy ehtiyojlarining qondirilishi tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlari asosida yuz beradi.

Mamlakatimiz yetakchi olimlaridan biri A. Muxtarov tomonidan ijtimoiy ehtiyoj, manfaatlar, g‘oya va mafkura tushunchalarining ma’no-mazmuni, umumiy va farqli jihatlari tavsiflanishi, uning shakllanishi bilan uzviy aloqadorligi, g‘oya va mafkuralar shakllanishining ijtimoiy-tarixiy genezisining manfaat va ehtiyojlar bilan mutanosibli, maqsad, manfaat va ehtiyojlarni ilmiy-nazariy hamda falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etish orqali ularning jamiyatdagi g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarga ta’siri, mamlakat aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, milliy manfaatlar tizimida ma’naviy-madaniy meros va mafkura birligi, diniy-axloqiy merosga vorislik, komil inson g‘oyalari shaxs, jamiyat va davlat rivojlanishining hayotiy ehtiyoji sifatida qaralishi, ta’lim islohotlari hayotiy ehtiyoj va undagi mafkuraviy jarayonlar, ta’lim milliy modelini ro‘yobga chiqarish, shaxs tarbiyasida ehtiyoj, manfaat milliy g‘oya va mafkura takomilining bosh omili tarzida bayon etilishi izchil tadqiq qilingan.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, tadqiqotchi ehtiyoj kategoriyasiga quyidagicha ta’rif bergan: ehtiyoj bu, insonning tabiiy, fiziologik, psixologik, moddiy-iqtisodiy, huquqiy-mafkuraviy hamda ma’naviy qondirish yoki ro‘yobga chiqarishga intilishning majmuidir.

A. Muxtarov inson ehtiyojining ijtimoiy-maishiy ehtiyojlarga, diniy, axloqiy, estetik, bilish, ta’lim-tarbiya ehtiyojlaridan iborat bo‘lgan ma’naviy ehtiyojga, boshqarish va tartibga solish maqsadidagi siyosiy va huquqiy ehtiyojlarga bo‘linishi tadqiq qilgan. [8; 44].



Z.D. Boytemirova ma'naviy ehtiyojlar tarkibidagi axloqiy ehtiyojlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borib, axloqiy ehtiyoj – insonning jamiyat va kishilar manfaati, ezgulik, adolat, poklik-halollik, haqiqat yo'lidagi faqat o'z manfaati bilan cheklanmagan va qondirilishini taqozo qiladigan beg'araz botiniy intilishi, individual ichki holatning ruhiy mexanizmi sifatidagi aqliy, ruhiy, emotsional omillar bilan bog'liq bo'ladi, shaxsning hayot, jamiyat, turmush, odamlar o'rtasidagi o'rnini mustahkamlash va mavqeni yuksaltirishda muhim rol o'ynashini e'tirof etadi.

Ma'naviy ehtiyojlar tizimini tadqiq qilgan olim M.K. Nomuratova ma'naviy ehtiyojlar tizimi tahlilining ijtimoiy-falsafiy asoslari, ma'naviy ehtiyojlarning ijtimoiy mohiyati, O'zbekistonda ma'naviy ehtiyojlar va ijtimoiy taraqqiyot dialektikasi doirasida ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning ta'kidlashicha – “Ma'naviy ehtiyojlar – inson ehtiyojlarining eng oliy ko'rinishi bo'lib, uning mohiyatida bilimga, kamolotga intilish, yuksak ideallarga ergashish orqali o'z – o'zini namoyon etish va anglash yotadi. Ma'naviy ehtiyojlar jamiyat taraqqiyoti darajasini, axloqiy ideallarini, maqsad va manfaatlarning qanday g'oyalarga yo'nalganlik xarakterini ko'rsatadi. U o'z mohiyatida ijodkorlik, bunyodkorlik va yaratuvchanlik salohiyatini jamlagan bo'lib, ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi jamiyatning taraqqiyotiga, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy takomillashuviga vosita bo'ladi”[13].

Mamlakatimiz olimlari tomonidan inson ehtiyojlarining uzluksiz yuksalishi, yoshlarda ma'naviy ehtiyojlarning shakllanish jarayoni haqida turkum ilmiy maqolalar ham chop etilgan.

Bugungi kunda yoshlarimiz ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir o'tkazayotgan ehtiyoj masalasi to'g'risida taniqli tarixchi olim A. Mavrulov keng mulohazalarini Sharq yulduzi jurnalida bayon etgan. Olimning e'tiroficha, “ehtiyoj insonning inson ekanligini doimo yodiga solib turadigan, uni tarbiyalaydigan, safarbar etadigan hodisa sifatida bir tomondan tabiiy yo'sinda yuzaga kelsa, boshqa tomondan jamiyat, davlat, turli tashkilot, muassasalar tomonidan shakllantiriladi. Umuman, ehtiyoj insonning ijtimoiy mo'ljali, uni turg'unlik holatidan chiqaruvchi vosita, kuchdir. Aslida, insoniyat taraqqiyoti ham ehtiyoj natijasida rivoj topadi” [7; 5].

Insonda sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish o'ta murakkab jarayon ekanligi, bilim, tafakkur va idrok ma'naviy ehtiyojlar shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi olim tomonidan ta'kidlanadi. “Oddiydan murakkablikka, shakldan mazmunga, sondan sifatga aylanish jarayonida, sog'lom ehtiyoj belgilari namoyon bo'lishi mumkin. Shu ma'noda, mamlakatimizda yosh avlodni ta'lim-tarbiya



jarayoniga jalb etish, ularda ilm-fanni o'zlashtirishga bo'lgan intilishni qo'llab-quvvatlanayotganligi hayrli ishdir" [7; 6].

Yoshlar tarbiyasida ulardagi ehtiyojlarning shakllanishi va o'sish jarayoniga alohida e'tibor qilish ijtimoiy hayotning zaruriy sharti ekanligi M.A.Axunov tomonidan etirof etilib, yoshlarda ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishda quyidagi uslublardan foydalanish mumkinligini tahlil qiladi:

1. Kuzatuv uslubi; 2. Mehnat mahsuli, ma'lumotlar tahlili; 3. Suhbat; 4. Uslubiy tajriba; 5. So'rovnoma; 6. Test; 7. Korreksion-rivojlantirish. [5; 46-48]

XULOSA

Xalqimizning boy madaniy, ilmiy merosini yaratgan, unga asos solgan mutafakkirlarimiz, olimu fuzalolarimiz to'g'risida yosh avlodga berayotgan bilimlarimiz, ajdodlarimizning madaniy hamda ma'naviy merosi, kashfiyotlari, yutuqlari haqida ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga, jamiyatdagi barcha insonlarga anglatishimiz orqali ularning sog'lom ma'naviy ehtiyojlarining o'sishiga katta ta'sir etish mumkin. Shuningdek, insonning rivojlanishi, uning komillik sari intilishi, mukammallik yo'lidagi sa'y-harakatlari, nafsning kuchayishi, molparastlik, shahvatparastlik, mansabparastlikka qarshi kurasha olishi orqaligina o'zida sog'lom ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish mumkin.

Shu kabi ishlar jahon hamjamiyati orasida o'z o'rnini topib borayotgan Yangi O'zbekistonda shaxs, uning manfaatlari yo'lida olib borilayotgan chuqur islohotlardan ko'zlangan maqsadning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri". – T.: Xalq merosi, 1993. – 186-188-b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-T., T.: 1968. -247b
3. Abu Rayhon Beruniy. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar". – T.: Fan, 1989. – 40-b.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. T. 7. – T.: Fan, 1991. – 240-b.
5. Axunov M.A. Inson ehtiyojlari va yoshlarning ma'naviy tarbiyasi. Ilmiy xabarnoma, ADU, №4 2013 yil, 46-48.
6. Boltaev M.N. Abu Ali Ibn Sino – buyuk tafakkur sohibi, O'rta asrlar sharq ensiklopedist olimi. "Sharq" nashriyoti – T.:Fan, 1980. 143-144-b.
7. Mavrulov A. Ma'naviyat – ehtiyoj mahsuli. Sharq yulduzi jurnali. 2010. №4 son, 3-7 bet.
8. Muxtarov A. Milliy g'oya takomilida ehtiyoj va manfaatlar birligi. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati T. 2011, -44 b.
9. Saitxodjaev H.B. Sotsiologiya: Maruzalar kursi. T.: O'zbekiston Respublikasi. IIV Akademiyasi, 2008. 169 b. 45betda
10. Erkaev A.P. "Ma'naviyat – millat nishoni". Toshkent "Ma'naviyat" 1997 y. 39-b.
11. Erkaev A.P. "Ma'naviyatning uch qonuni". "Tafakkur" jurnali. 2017 yil 2-son 20-26 betlari.
12. Umarov E. Abdullaev M. Ma'naviyat asoslari. "Cho'lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi" Toshkent – 2006, 27 – bet
13. Nomuratova M.K. "Jamiyat taraqqiyotidagi ma'naviy ehtiyojlarning falsafiy tahlili". Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati, T.: 2011, -28 b.



XALQARO INNOVATION TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnali

International scientific journal

INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH